



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

## BUXORO SHASHMAQOMI VA UNING ILK NOTA YOZUVI

**Abduhoshimov Shoxbozbek Xurshidbek o'g'li,**

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy  
musiqa san'ati instituti magistranti.*

Ilmiy rahbar: **Yunusov Ravshan Yusupovich,**

*San'atshunoslik fanlari nomzodi,  
O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori.*

*Annotatsiya. Mazkur maqola o'zbek mumtoz musiqasining durdonasi bo'lgan Buxoro Shashmaqomining tarixan ilk bor nota yozuviga tushirilishi haqida bo'lib, unda ushbu voqea jarayonlari va qahramonlari xususida ma'lumotlar keltirilgan, xato va kamchiliklar qisqacha ko'rib chiqilgan.*

*Kalit so'zlar: maqom, Shashmaqom, nota, sozanda, hofiz, musiqashunos, etnomusiqashunos, Fitrat, Ota Jalol, Ota G'iyos, Uspenskiy, Belyayev.*

O'zbek mumtoz musiqasining durdonasi bo'lgan Shashmaqom XVIII asrga kelib Buxoro amirligida uzil-kesil shakllangani san'atshunoslik fanlari doktori, maqomshunos alloma Is'hoq Rajabovning ilmiy izlanishlaridan bizga ma'lum. O'zbek va tojik xalqlari musiqiy merosida markaziy o'rinni egallagan Shashmaqom turkumi o'zining barkamolligi, mukammal shaklga ega ekanligi va yuksak badiiy saviyasi bilan ushbu xalqlar musiqiy xazinasini gultojsidir.

Ushbu hashamatli turkum o'zining uzun tarixiy yo'li davomida qiyin va murakkab dovonlardan o'tib, bugungi kungacha yetib kelishida bir qancha fidoyi insonlar turli mushkulliklarni yengib, matonat ila kelajak avlod uchun xizmat qildilar.

Ulardan biri, ta'bir joiz bo'lsa birinchisi XX asr boshlarida O'rta Osiyo jadidchilik harakatining mashhur vakillaridan, yangi o'zbek adabiyotining asoschilaridan bo'lgan birinchi o'zbek professori, dramaturg, nosir, shoir va zabardast qomusiy olim, (1920-yildan e'tiboran Fayzulla Xo'jayev bosh BXSRS hukumati a'zosi, 1921-yilda Xalq maorifi noziri, 1922-yilda xorijiy (tashqi ishlar) noziri, xalq xo'jaligi kengashi raisi, MIQ va Xalq nozirlari sho'rosi raisining o'rinbosari va boshqa lavozimlarda, demak) davlat va jamoat arbobi ham bo'lgan Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitratning tashabbusi, rag'bat va bevosita ishtirokida Buxoro maqomlari tarixda ilk bor notalashtirila boshlandi. Fitrat tomonidan rasman yozma yoki og'zaki tarzda berilgan taklif Peterburg konservatoriyasini tugatgan va Badiiy kengash qarori asosida xalq qo'shiqlarini to'plash va o'rganish uchun Turkistonga kelgan rus etnograf olimi Viktor Aleksandrovich Uspenskiy tomonidan qabul qilingan edi. Bu haqda V.A.Uspenskiyning "Классическая музыка узбеков" nomli maqolasida ham o'qish mumkin: "Fitrat tashabbusi bilan 1922-yili Buxoroda musiqiy-etnografik ishlar, Shashmaqom tarkibidagi 6 klassik musiqali poemalarni yozib olish boshlandi"<sup>33</sup>.

Shashmaqom nota to'plamini zamonaviy Yevropa nota yozuviga tushirishdek mashaqqatli va shu bilan birga mas'uliyatli vazifani amalga oshirgan shaxs,

<sup>33</sup> В.А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. – Т., 1980. 31-б.

O‘zbekiston va Turkmaniston xalq artisti, taniqli etnograf olim, kompozitor Viktor Aleksandrovich Uspenskiy bo‘lgan edi.

V.A.Uspenskiy rus millatiga mansub bo‘lishi bilan birga O‘rta Osiyo musiqasiga, xususan, o‘zbek milliy musiqasiga ham qiziqishi nihoyatda baland bo‘lgan san’atkordir. Bu haqda u 1922-yilda Belyayevga yozgan maktubida: “Bu musiqa (O‘rta Osiyo, xususan o‘zbek musiqasi nazarda tutilyapti – Sh.X.) juda qiziqarli va rang-barang” – deydi va yana shuni aytadiki: “Ish qiziqarli, lekin meningdek kichik musiqachi uchun og‘ir va men mutlaqo yolg‘izman (ishda – Sh.X.)”<sup>34</sup> – deb yozgan edi. U qancha qiyinchiliklarga qaramasdan, o‘z sog‘ligi, umri-yu vaqtini ayamay, hayotini O‘rta Osiyo, ayniqsa, o‘zbek musiqasini, jumladan Buxoro Shashmaqomini o‘rganishga bag‘ishlab, uni notalashtirishga hayiqmay bel bog‘lagan yetuk etnografdir.

Ushbu ulkan ishda unga yaqindan yordam bergan, o‘zining qimmatli maslahatlari ila uning juda og‘ir vazifani ado etishiga yaqindan ko‘maklashgan insonlar: Viktor Mixaylovich Belyayev kabi maslakdosh do‘sti, Ota Jalol Nosirov hamda Ota G‘iyos Abdug‘ani kabi soha mutaxassislari va Abdurauf Fitrat kabi chinakam fidoyi insonlar bo‘lgan.

Natijada 1924-yili Moskvada “Шашмақом. Шесть музыкальных поэм (маком)” nomli nota to‘plami 5000 nusxada chop ettirildi. 128 sahifadan iborat bo‘lgan bu to‘plamda har bir maqom uchun alohida daftarlar nashr etilgan bo‘lib, ular yahlitlikda Shashmaqom nota kitobini tashkil etadi. Ushbu nota to‘plami Abdurauf Fitrat va Nikolay Nazarovich Mironov tahriri ostida chop etilgan bo‘lib, unga amir saroyida uzoq yillar mobaynida faoliyat olib borgan maqomdon ustozlar – hofiz Ota Jalol Nosirov hamda sozanda-tanburchi Ota G‘iyos Abdug‘ani ijrolari asos qilib olindi.

Ushbu Shashmaqom nota to‘plami yaratilishi haqida Fitrat musiqa sohasidagi qimmatli ilmiy asari – “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” nomli risolasida quyidagi so‘zlarni bitgan edi: “Mening fikrimcha bu to‘g‘rida to‘la xizmatni Buxorodag‘i Sharq musiqiy maktabi qildi. Bu maktab rus musiqiyshunoslaridan ozod san’atkor V.A.Uspenskiy bilan birga ikki yil tirishib, Shashmaqomni notag‘a oldirdi, ham maorif hisobida besh ming nusxa bostirishg‘a muvaffaq bo‘ldi”<sup>35</sup>. Fitrat e’tirof etgan Sharq musiqa maktabi ham uning ulkan xizmatlari samarasidir. Birgina misol, 1921-yilda ochilgan Sharq musiqa maktabiga Fitrat o‘z uyini (sobiq “Дзержинский 8”, hozirda buzilib ketgan) tuhfa etadi va unga o‘zi mutasaddilik qiladi.

Ko‘rinib turganidek Abdurauf Fitrat nafaqat zabardast tilshunos, tarixchi, faylasuf, huquqshunos, yozuvchi, shoir, dramaturg, balki, tom ma’noda musiqashunos hamdir. U chinakam qomusiy olim, serqirra va ulkan iste’dod sohibidir. Fitrat qadimiy an’anaga muvofiq, O‘rta asrlardagi qomusiy ziyolilarimiz singari musiqa san’ati bilan ham nazariy shug‘ullangan. U o‘zining “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” (1928) nomli maqolasida ushbu so‘zlarni yozgan edi: “U (o‘zbek musiqasi nazarda tutilyapti – Sh.X.) bir musiqaki, yolg‘iz o‘zining qismida

<sup>34</sup> В.А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. – Т., 1980. 214-б.

<sup>35</sup> Фитрат. Ўзбек классик мусикаси ва унинг тарихи. – Т., 1993. 51-52-бетлар.

300 dan ortiq kuy saqlangan. Bir musiqaki, bugun o'n beshga yaqin cholg'uning egasidir"<sup>36</sup>. Haqiqatan ham u shunday boy musiqa, nazarimizda bu yerda aynan Shashmaqom nazarda tutilgan edi.

V.Uspenskiy Shashmaqomni notaga olish jarayonida Fitrat rahbarligida va uning maslahatlari ila bebaho xazinamizni yozib olish sharafiga muyassar bo'ldi. U Belyayevga yo'llagan maktublarida Fitratni o'zbeklar ichidan chiqqan eng e'tiborli olimlardan ekanligini ta'kidlaydi. Yana bir maktubda esa Uspenskiy Belyayevga: "(nota to'plamiga) Nozir Fitratning portretini joylashtirgin – bu juda muhim"<sup>37</sup> – deb yozgan edi. Bu V.A.Uspenskiy tomonidan Shashmaqom turkumining birinchi marotaba nota yozuviga tushirilishida A.Fitratning ulushi nechog'lik katta ekanligiga yana bir misol bo'la oladi.

Uspenskiy Shashmaqomni notaga yozib olish jarayonida o'zi uchun yangi va tushunarsiz bo'lgan ko'p voqealarga duch keldi. U bunday vaqtlarda Fitratdan tashqari do'sti, Moskva konservatoriyasining professori, taniqli etnomusiqashunos olim Viktor Mixaylovich Belyayevdan maslahat olgan. Uspenskiy Belyayevga o'zining amaliy ishlarini jo'natib, samimiy fikrini, maslahatlarini va notalashtirilgan kuy va ashulalarni tahrirlab berishini so'ragan. Ular o'z yozishmalarida asosan o'zbek, turkman va tojik musiqasi bo'yicha, qolaversa, o'zlari haqida va sodir bo'layotgan voqealar xususida juda qiziqarli, ayni vaqtda esa qimmatli ma'lumotlarni keltirganlar. Uspenskiy orqali Belyayev ham o'zbek musiqasiga, xususan, Shashmaqomga juda qiziqib qoladi: "Hozirda asosan Shashmaqom ustida juda ko'p ishlayapman. Bu juda ham qiziqarli (...) O'zbek tilini o'rganyapman. Fitrat kitobidan 15 ga yaqin betni tarjima qildim. Shashmaqom bo'yicha har-xil jadvallar tuzdim, uning tuzilishi aniq ko'rinib turibdi"<sup>38</sup> – deb yozgan edi do'sti Uspenskiyga. O'zbek cholg'ularini o'rganish natijasida yaratilgan "Руководство для обмера народных музыкальных инструментов" (1931) va "Музыкальные инструменты Узбекистана" (1933) nomli asarlari bizning musiqa cholg'ularimizga bo'lgan katta qiziqishi va mehridan dalolatdir.

V.A.Uspenskiy notalashtirgan Shashmaqom yana shunisi bilan ahamiyatliki u Buxoro maqomlarining bilimdonlari, amir saroyida uzoq vaqt ishlagan, tajribali maqomdonlardan bo'lgan Ota Jalol Nosirov (1845-1928) hamda tanburchi Ota G'iyos Abdug'ani (1859-1927) ijrolaridan yozib olingan. Ustozlarning ustози bo'lgan ushbu ikki buyuk san'atkorlar ijrosidan yozib olingan Shashmaqom o'zining originallik xususiyati bilan katta ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan ular o'z davrida Shashmaqomning "jonli kitob"i bo'lib, saroy ahli va keyinchalik xalq uchun beminnat xizmat qildilar, bebaho merosni kelajak avlod vakillariga yetib borishiga ulkan hissa qo'shdilar.

Biroq, bunday mashaqqatli va mas'uliyatli, murakkab va o'z davri uchun olamshumul bo'lgan vazifani amalga oshirish oson bo'lmadi, albatta. Shashmaqom nota to'plamining V.A.Uspenskiy tomonidan tayyorlangan ilk nashri kamchiliklardan ham holi emas. Jumladan, Shashmaqomning asosini tashkil etuvchi

---

<sup>36</sup> Manba: Абдурауф Фитрат. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Т., 2004. 382-бет.

<sup>37</sup> В. А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. – Т., 1980. 227-б.

<sup>38</sup> В.А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. – Т., 1980. 249-б.

ikki muhim omil – parda hamda usul masalasi va boshqa bir qancha jihatlardan kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Unda Shashmaqomning Nasr deb atalmish ashula bo‘limi tanbur ijrosida yozib olinib, she‘r matni esa yozilmay qoldi.

V.A.Uspenskiy do‘sti V.M.Belyayevga 1927-yil 4-iyulda yo‘llagan maktubida nega Shashmaqom Nasr bo‘limi she‘r matnlarisiz yozib olinganligining sababini keltiradi: “Shashmaqom so‘z matnlarini yozmaganman. Buni muhimligini Fitratga ta’kidlagan bo‘lsam ham u buni xohlamadi”<sup>39</sup>(!). Ushbu so‘zlar qiziqarli, mushohadaga chorlaydigan bo‘lib, “nega Abdurauf Fitratdek ulug‘ olim ilk Shashmaqom nota to‘plamiga she‘r matnlari kiritilmasligini xohlagan?” – degan o‘rinli savolni vujudga keltiradi. Bu savolga aniq javob berish mushkul, chunki Fitrat ham Uspenskiy ham bu to‘g‘risida aniq bayon etishmagan.

Shashmaqom nota to‘plami nashr etilganiga ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng ikki rus etnomusiqashunosi 1924-yilgi nashr xatolarini anglab yetishgani va ularni tuzatishga harakat qilishganini o‘zaro yozishmalaridan tushunish mumkin. Jumladan, Belyayevning “Shashmaqom so‘z matnlarini yig‘ish kerak” qabilidagi havotirlariga javoban 1927-yilning 20-iyulida Uspenskiy: “Shashmaqom so‘z matnlarini yig‘ish juda mushkul, gap shundaki, matnlar uchun Buxoroning o‘ziga borish kerak. Hofizlar ularni juda avaylashadi va ularni bizga shunchaki berib qo‘yishmaydi (jo‘natishmaydi)”<sup>40</sup> – deb yozgan edi.

Keyinchalik Shashmaqom nota to‘plamining takomil nashrini yaratgan ulug‘ bastakor, mahoratli sozanda va hofiz, maqom xazinaboni deya yuksak e’tirof etiladigan, akademik Yunus Rajabiy o‘zining “Muzika merosimizga bir nazar” deb nomlagan kitobida Shashmaqomning ilk nashri xususida quyidagi so‘zlarni bitgan edi: “Bu Shashmaqomni notaga olishdagi dastlabki qadam bo‘lib, ba’zi kamchiliklardan holi emas edi. Shunga qaramay, ushbu kitobning nashr etilishi o‘zbek muzika madaniyatida muhim hodisa bo‘ldi”<sup>41</sup>. Darhaqiqat, u kamchiliklariga qaramay ulkan tarixiy ahamiyatga molik bo‘lgan hodisa bo‘lib, kelgusi nota to‘plamlari uchun ham asos-yo‘riqnoma vazifasini o‘tagan qimmatli nashrdir.

#### Foydalangan adabiyotlar

1. “Шесть музыкальных поэм (маком)”. Записанных В.А.Успенским в Бухаре. – М., 1924.
2. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: O‘zRFA “Fan” nashriyoti, 1993.
3. Успенский В.А. Статьи. Воспоминания. Письма. – Т.: “Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма”, 1980.
4. Yunus Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti”, 1978.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “F” va “SH” harflari. “Davlat ilmiy nashriyoti”. – T. (elektron versiya).
6. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T., 2004.

<sup>39</sup> В.А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. – Т., 1980. 234-б.

<sup>40</sup> В. А. Успенский. Статьи. Воспоминания. Письма. Ташкент – 1980. 237-б.

<sup>41</sup> Yunus Rajabiy. Muzika merosimizga bir nazar. - Toshkent, 1978. 10-bet.